

OYBEKNING “QUTLUG‘ QON” ROMANI TURK TILIDA

Hamidov Xayrulla
filol. f. d. (DSc),
TDSHU professori v.b.,
Tel: 90 960 06 23.

Annotatsiya. Atoqli o‘zbek adibi Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek qalamiga mansub “Qutlug‘ qon” romani 2023-yilda turk tiliga tarjima qilinib Turkiyada “Bengu” nashriyotida nashr etildi. Ushbu maqolada mashhur roman tarjimasining o‘zbek va turk xalqlari orasidagi adabiy aloqalarni mustahkamlashdagi muhim ahamiyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek-turk adabiy aloqalari, roman, asliyat, badiiy tarjima, milliylik, badiiylik.

O‘zbekistonning Turkiya Respublikasi bilan to‘laqonli munosabatlari o‘rnatilgan davr, asosan mustaqillik yillariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda yurtimizda adabiyot, san‘at, madaniyat va albatta badiiy tarjimaga bo‘lgan e’tibor ham kuchaydi, o‘zbek adabiyotining sara namunalarini turk tiliga va turk adabiyoti durdonalarini o‘zbek tiliga o‘girish ishlari o‘zining yuqori darajasiga chiqdi. Qardosh turk va o‘zbek xalqlari o‘rtasidagi madaniy, adabiy aloqalar badiiy tarjima orqali yanada mustahkamlandi. Jumladan, taniqli o‘zbek adibi A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, A.Qahhor hikoyalari, P.Qodirovning “Yulduzli tunlar”, O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo”, “Adolat manzili” romanlari, S.Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasi va o‘nlab hikoyalari, O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissalari turk tiliga o‘g‘irilib, Turkiyada nashr etildi. Bular orasida atoqli o‘zbek adibi, akademik Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek qalamiga mansub romanlar alohida o‘rin egallaydi.

Oybek yaratgan “Qutlug‘ qon”, “Navoiy”, “Ulug‘ yo‘l”, “Oltin vodiyan shabadalar”, “Quyosh qoraymas” kabi epik polotnolar o‘zbek realistlik romanchiligi taraqqiyotida muhim bir davrni tashkil etishi olimlarimiz va jamoatchilik tomonidan e’tirof etilgan. Quyida adibning o‘tgan 2023-yilda Turkiyada yashab ijod qilayotgan ijodkor Zamira Hamidova (O‘zturk) tomonidan turk tiliga ag‘darilib Turkiyaning “Bengü” ve “Nobel” nashriyotlarida chop etilgan “Qutlug‘ qon” [Oybek 2] (Kutlu Kan) [Aybek 2] va “Oltin vodiyan shabadalar” (Altın Vadiden Esintiler) [Aybek M.T.3] romanlarining turk tiliga tarjima qilinishi va buning o‘zbek va turk xalqlari orasidagi adabiy aloqalardagi muhim o‘rni va ahamiyati xususida so‘z yuritiladi. Darhaqiqat, yaqinda taniqli tarjimon, yurtdoshimiz Zamira Hamidova bilan respublikamizning bir necha viloyati va Toshkent shahridagi ilmiy, oliy ta’lim muassasalarida taniqli shoir va yozuvchilar ishtirokida ijodiy uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etildi. Jumladan, "Qutlug‘ qon", “Oltin vodiyan shabadalar” romanlari turkcha tarjimasini nashri taqdimoti Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda O‘zbekiston

Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida, Jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti, Alfraganus universitetlarida hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasida ushbu romanlar tarjimai taqdimoti o‘tkazildi.

Ushbu maqolada “Qutlug‘ qon” romanining turk tiliga qilingan tarjimai haqida so‘z yuritiladi, asarning qardosh tilda qay saviyada o‘girilgani, undagi badiiy san’atlar, asosan tabiat tasviri, portret, interyerni qayta yaratishda ijodkor erishgan yutuqlar va ijodiy mehnat jarayonida e‘tibordan chetda qolgan ayrim kamchiliklar xususida mulohazalar bildiriladi. Tadqiqotdan olingan natijalar o‘zaro yaqin tillardan tarjima qilish amaliyotini takomillashtirish, aslyatdan bevosita tarjima bilan bog‘liq yuzaga kelayotgan muammolarning hal qilinishiga ko‘mak beradi.

Ta’kidlash joizki, bundan bir necha yil ilgari Oybekning o‘zbek xalqi tarixining XV-XX asrlaridagi hayoti yorqin badiiy aks etgan “Navoiy” romani ham turk tiliga ketma-ket ikki marta (1995-yil Ahsan Botur [Nevai 1995. 4] va 2019-yil Shuayip Qoraqosh [Nevâyi 2019. 5] tomonidan) tarjima qilinib nashr etilgan edi. Mana ko‘p o‘tmay 2023-yil “Qutlug‘ qon” va “Oltin vodiyan shabadalar” romanlari ham turk tiliga o‘girilib, nashr etildi.

2023-yilning oxiriga kelib Oybekning bir necha hikoyasi va “Bolalik” qissasidan parcha tarjimai O‘zbekistonda nashr etilgan “Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikâyeler – Şiirler (*Antoloji*)” deb nomlangan turkcha tarjimalar to‘plamidan o‘rin oldi [Hamidov X. 6].

“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida Shuhrat Hayitovning “Adabiy hamkorlik” rukni ostida bosilgan “Qutlug‘ qon” romani turk tilida” nomli maqolasida “Qutlug‘ qon” romanining turk tiliga tarjimai ikki qardosh xalq o‘rtasidagi azaliy adabiy hamkorlikning bugungi ifodasi, madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikning samarasi ekanligi, Oybekning hayoti va ijodi hamda XX asr o‘zbek adabiyoti haqida tushuncha berib o‘tilgani turkiyalik kitobxonlarga Oybek haqida keng tasavvur berganini ta’kidlanadi [Hayitov Sh.7]. Shuhrat Hayitov “Qutlug‘ qon” asari tarjimai o‘zbek-turk adabiy aloqalari tarixida Alisher Navoiy, Bobur, Lutfiy, Atoyi, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi allomalarimiz asarlarining turk tilidagi tarjimalaridan keyingi qimmatli nashr sifatida qadrli ekani, u Z.Hamidovning Yevroosiyo xalqlari adabiy aloqalariga doir ko‘p yillik izlanishlari, mehnati samarasi, qolaversa, o‘zbek adabiyotiga bo‘lgan ulkan ehtiromi ramzi ekanliga urg‘u beradi [Hayitov Sh.7].

O‘zbek adabiyotining ikki durdonasi: “Qutlug‘ qon” va “Oltin vodiyan shabadalar” romanlarini nashr etish jarayoniga turkiyalik ijodkor, Yevroosiyo yozuvchilar uyushmasi raisi, “Bengü” nashriyoti mudiri Yoqub Umar o‘g‘li va “Nobel” nashriyoti bosh muharriri Nevzat Argun va tahririyat kengashining bosh kotibi Gulfem

Dursun boshchiligi va homiyligida malakali turk mutaxassisleri, muharrir va dizaynerlar guruhi jalb qilingani, “Qutlug‘ qon” romaniga turkiyalik taniqli jurnalist, muharrir, ayni paytda Turkiya atrof-muhitni muhofaza qilish, shaharsozlik va iqlim o‘zgarishi vaziri matbuot kotibi Laylo Gunesh mas’ul muharrirlik qilgani, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Naim Karimovning “Oybek va uning “Qutlug‘ qon” asari haqida” nomli so‘zboshisi ushbu nashr ahamiyatini yanada oshirgani bizga yaxshi ma’lum.

Tarjima o‘ta murakkab, o‘ta nozik, sermashaqqat ish. “Men tarjima qilishni matematikadan misol yechishga o‘xshataman, deydi Zamira Hamidova, – Tashqaridan qaraganda oddiygina ishday ko‘ringan bu soha aslida juda murakkab. Chunki har bir so‘zning o‘z kuchi, og‘irligi, shiddati, rangi bor. Bir tilda berilgan so‘zning o‘g‘irilishi kerak bo‘lgan tildagi so‘zning yuqorida aytib o‘tilgan, birma-bir xususiyatga ega bo‘lgan so‘zni topib ishlatmas ekansiz “tarozining pallalari teng turmaydi, og‘ib ketaveradi”. U tarjimonlik kasbini kasblar orasida bu ishni qilayotgan insonga har kuni qandaydir yangi ilm o‘rgatadigan kasb deb hisoblaydi. “Sababi har yangi matn bizni yangi mavzu haqida bilim egasi bo‘lishimizni talab qiladi, xohlasak xohlamasak har yangi matnda qanchadan-qancha ma’lumotga ega bo‘lamiz, miyamizni charxlab turamiz” [Hamidov X., Rasulova K.8:159].

“Qutlug‘ qon” romani turkcha tarjimasining o‘ziga xosligi shundaki, unda tarjimon Zamira Hamidova (O‘zturk) o‘zining 2 sahifadan iborat “Çevirenin Notu” deb nomlangan so‘zboshisidan oldin Musa Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning tarjimai holi, taniqli o‘zbek adabiyotshunosi, marhum filologiya fanlari doktori, akademik Naim Karimovning 15 sahifalik “Musa Aybek ve Kutlu Kan Romani hakkında” nomli muqaddimasi va Naim Karimovning qisqa tarjimai holini turkchaga ag‘darib kiritgan.

Ushbu maqola ana shu mukammal asar – yirik film-epopeyani eslatuvchi “Qutlug‘ qon” romanining turkcha tarjimasi ustida olib borilishi rejalashtirilgan yirik tadqiqotning debochasi hisoblanadi. Quyida o‘zbekcha-turkcha tarjimaning nazariy masalalari xususida bildirilajak fikrlarimiz romandan keltirilgan aniq misollarga asoslanadi.

Roman quyidagi manzara tasviri bilan boshlanadi: *“Vaqt peshindan oqqan edi. Iyul oyining quyoshi hamma yoqni olov seli bilan to‘ldirgan, havo allaqanday oq alanga bilan jimgina yonganday... Keng dala yo‘lida qatnovchilar siyrak: eski kir qalpog‘ini burniga qadar tushirib, issiqdan mudragan va horg‘in orig‘ otining yalqov qadamiga bardosh qilib shahardan qaytayotgan chetan aravali dehqon ikki oyog‘i bilan eshakning qorniga niqtab, muttasil “xix-xix” bilan halqumini qirgan bir mo‘ysafid uzumchi, qatig‘ini pullab, xurmachalarini orqalagan, issiqqa qaramay, goh aravaga osilgan, goh qush uyasini qidirib daraxtlarga ko‘z tikkan*

ust-boshi kir-chir sho‘x bolalar... Issiq tobora ortar, “g‘ir” etgan shamol yo‘q, ot-arava ko‘targan chang havoda uzoq vaqt qimirlamay turib qolar, yuzlarga qizg‘in temir uchquni kabi yopishar, nafasni bo‘g‘ar edi” [Oybek 1:9].

Zamira O‘zturk tabiat va atrofdagi holat tasvirlangan parchani turk tiliga quyidagicha ag‘daradi: *“Vakit o‘g‘leyi ge‘çmi‘şti. Temmuz güne‘şi sanki her tarafa ate‘ş salmış, hava görünmeyen alevlerle yanıyor gibiydi. Geniş tarla yolunda gidip gelenler tek tük denecek kadar azdı. Eskimiş kirli başlığını burnuna kadar indirerek sıcaktan uyuklayan, yorgun yaşlı atının tembel adımlarına sabredip şehirden at arabasıyla dönen çiftçi; iki ayağını eşeğin karnına dayayıp sürekli “deh deh” diye seslenen yaşlı üzümcü; yoğurdunu satıp kaplarını omzuna asan, sıcağa rağmen kâh at arabasına atlayan, kâh kuş yuvası arayarak ağaçlara tırmanan, üstü başı kirli yaramaz çocuklar... Havada hiç esinti yoktu üstelik sıcak da gitgide artıyordu, at arabasının kaldırdığı toz havada uzun süre kıpırdamadan duruyor, yüzlere kızgın demir tozları gibi yapışıyor, nefesleri kesiyordu” [Aybek. 2:23].* Parchada yozuvchi tasvirlagan hamma narsa turk tilida ishonchli qayta yarata olingan. Tarjimon o‘zbekcha manzara, holat va portret tasvirlarini so‘zma-so‘z ag‘darishdan qochadi va asliyatda berilgan vaziyat turk tilida qanday ifodalanishi kerak bo‘lsa, shunday berishga harakat qiladi. Masalan, o‘zbek tilida “vaqt peshindan og‘ishi” mumkin, lekin turk tilida bunday deyilmaydi. Yoki o‘zbek tilida odam “siyrak” bo‘lishi mumkin, ammo turkchada buni “tek tük denecek kadar az” (yakkam-dukkam) deb bergan tarjimon uslub nuqtayi nazaridan to‘g‘ri ish tutgan. Shu kabi, “yuzlarga qizg‘in temir uchquni kabi yopishar, nafasni bo‘g‘ar edi” sodda gapini “yüzlere kızgın demir tozları gibi yapışıyor, nefesleri kesiyordu” shaklida o‘girib, asliyat uslubini to‘la saqlashga muvaffaq bo‘lgan.

Ta‘kidlash joizki, badiiy asarda inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri portret: insonning yuzi, jussasi, libosi, xatti-harakati tavsifi hisoblanadi. «Portret – personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi, kitobxon tasavvurida jonlanadigan inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri, asarning kompozitsion unsuri bo‘lmish tavsifning bir ko‘rinishidir» [Quronov D.9: 226]. Portretning tarjimada berilishi masalasiga kelinganda vaziyat ancha o‘zgaradi, chunki bu yerda gap asliyatda muallif tomonidan tayyor “chizib qo‘yilgan” portretni boshqa til vositasida qayta yaratilishi xususida boradi. Tarjimada portretning qanday berilganligini aniqlash tarjimaning badiiy saviyasi, qimmat va tarjimon mahorati qirralarini o‘rganish borasida asosli xulosalar chiqarishga imkon beradi. Demak, yozuvchi mahoratini belgilovchi muhim omillardan biri asar personajlari portretini yaratish bo‘lsa, tarjimonning mahorati uning to‘laqonli berilishi bilan o‘lchanadi.

“Qutlug‘ qon” romanining ilk sahafalaridan qatorasiga tabiat tasvirlari, interyer va portret tavsiflariga duch kelamiz. Mana shahar markazida joylashgan choyxonadagi samovarchi portreti: *“Samovarchi chuvak yuzli, eti suyagiga yopishgan, jikkak va shu bilan baravar g‘irt ko‘sa odam edi. U ustaning qo‘liga tusha-tusha xo‘p ezilgan, qorni pachaq, chirkin katta samovarning oldida yog‘och yelkasini qisib o‘tirar, kelgan-ketgan odamlar bilan unchalik ishi yuq; is bosgan kir latta bilan dam samovarni, dam yonida qalashgan piyola-choynaklarni artar, har kuni ming martalab qo‘lida tutadigan piyolalarni olib, go‘yo birinchi daf‘a ko‘rganday, ko‘zini aylantirar, tovushini baland qo‘yib, o‘zicha valdirar edi...”* [Oybek. 1:10] Ushbu parchada adib samovarchi portreti va u turgan joy tasvirini mohir musavvir qalami ostidan chiqqan manzaradan qolishmaydigan darajada yarata olgan. Parcha turk tiliga quyidagicha o‘girilgan: *“Semaverci; zayıf yüzlü, eti kemiğine yapışmış, ufak tefek ve tamamen köse bir adamdı. Tamircinin eline düşse düşse çok ezilmiş, karnı büyük, çirkin, büyük semaverin yanında kuru omuzlarını iyice içe çekerek oturuyor ve gelen gidenle hiç ilgilenmiyordu. Kirli bir bezle kâh is basmış semaveri siliyor kâh yanında dağ gibi biriken çaydanlık ve piyaleleri¹ eline alıp ilk defa görüyormuşçasına gözünün etrafında döndürüyordu. Birden sesini yükselterek kendi kendine homurdandı”* [Aybek.2: 24].

Tarjima ravon, ishonchli, bejirim chiqqan, asliyat mazmuni tarjimada o‘z aksini to‘la topgan, turk tilining barcha grammatik qoidalariga ham to‘la amal qilingan. Shunga qaramay, nimadir yetishmayotganday, nimadir xiraday tuyuladi. Masalan, o‘zbekcha jumladagi “chuvak yuzli” birikmasi turkchaga “zayıf yüzlü” shaklida o‘girilgan. **O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida “chuvak” so‘zining ma‘nosi** “qotmadan kelgan, oriq; kichkina, ozg‘in” deb berilgan va u ko‘proq inson gavdasiga nisbatan ishlatiladi (*chuvakkina odam*). Yoki “bukilib, ezilib yoki sinib ichiga botgan; abjag‘i chiqqan; majaqlangan...” ma‘nosidagi **“pachaq”** (*pachaq chelak, pachaq samovar*) **so‘zining ham “karnı büyük” deb berilgani oqibatida muallif uslubi sal xiralashgan ko‘rinadi. Shuningdek, “jikkak” sifati o‘zbek tilida** ^{jussasi} kichik, qotmadan kelgan, ixcham” bo‘lib, uning turk tilida “ufak tefek” deb berish unchalik tg‘ri emasga o‘xshaydi. Chunki, “ufak tefek” – mayda-chuyda, mayda, arziyas ma‘nolariga ega. Shu kabi, “g‘irt ko‘sa” birikmasini ham “tamamen köse” emas, boshqacha berish maqsadga muvofiq edi. Asliyatdagi “yog‘och yelkasini qisib o‘tirar” birikmasining “kuru omuzlarını iyice içe çekerek oturuyor” tarzida berilganini xato deb bo‘lmaydi, biroq uni ham adib uslubiga xos tarzda berishni o‘ylab ko‘rish kerak. Yoki “har kuni ming martalab qo‘lida tutadigan piyolalarni olib” ravishdosh oborotli birikma turkcha tarjimada tushirib qoldirilgan. Shu kabi o‘zbekcha qo‘shma gap tarkibidagi “tovushini baland qo‘yib, o‘zicha valdirar edi...” sodda gapi alohida olinib “Birden

¹ Piyale: çay içmek için kullanılan, kâse şeklindeki kap.

sesini yükselterek kendi kendine homurdandı” (turkchadan teskari so‘zma-so‘z tarjiması: *Birdaniga ovozini balandlatib o‘ziga o‘zi aytindi*) shaklida turkchalashtirilgan.

Portret tavsifi ichiga qancha chuqur kirib borilsa, shuncha “o‘zgachalik”ka duch kelinaveradi. Bu yerda masala tarjimonning tilni yaxshi bilmasligida emas, balki muallifga teng so‘z san’ati sohibi emasligida bo‘lsa kerak. Zero, buning iloji ham yo‘q. Yuksak she’riy asarni tarjima qilish va uning asliyatga tenglashtirishga da’vo qilish qanchalik imkonsiz bo‘lsa, Oybek uslubini aynan o‘zidek qayta yaratish shunchalik murakkab ishdır.

Xulosa. Ushbu maqolada birinchi navbatda Oybek yaratgan “Navoiy”, “Qutlug‘ qon”, “Oltin vodiıdan shabadalar” romanlari, “Bolalik” qissasi va adib qalamiga mansub hikoyalarning turk tiliga tarjima qilinganligi haqida ma’lumot berildi. Unda keyin esa “Qutlug‘ qon” romani tarjiması tahlili, tarjimonning mahorati, so‘z qo‘llashdagi topqirligi va iste’dodi qirralarini o‘rganishga kirishildi. Darhaqiqat, ushbu maqola Oybek asarlari turkcha tarjimalarida muallif uslubi, milliylik va badiiylikning qayta yaratilishi mavzusiga bag‘ishlab boshlangan tadqiqotning debochasi bo‘ladi va bu boradagi ishlar yaqın kelajakda chuqurlashtirilib yirik monografik tadqiqot darajasiga olib chiqiladi, deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. [Oybek] – Oybek, Muso Toshmuhammad o‘g‘li. Mukammal asarlar to‘plami. 19 tomlik // Tahrir hay’ati: Marat Nurmuhamedov, Komil Yashin v.b. – Toshkent: “Sharq”, 2004, –496 b.
2. [Aybek] – Aybek, M. Kutlu kan, Roman, Çev. Zamira Öztürk. – Ankara: Bengü, 2023.
3. [Aybek M.T.] – Aybek, Altın Vadiden Esintiler, Roman, Çev. Zamira Öztürk. – A.:Nobel, 2023
4. [Nevai 1995] – Aybek, M.T. Nevai, Çev. Ahsen Batur. – İstanbul: 1995. – 447 s.
5. [Nevâyi 2019] – Aybek. Nevâyi, Roman, Türkiye Türkçesine aktarma ve İnceleme Prof. Dr. Şuayip Karakaş. –İstanbul: Ötüken Yayınevi, 2019. – 461 s.
6. [Hamidov X.] – Hamidov X. Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikâyeler – Şiirler (*Antoloji*). – Taşkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2023. – 464 s.
7. [Hayitov Sh.] – “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 2023-yil 11-avgust № 31 (4742).
8. [Hamidov X., Rasulova K.7] – Oybekni turkcha “so‘zlatgan” ijodkor. Tarjimashunoslar forumi – 2023. Translation Forum – 2023 (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami). – Toshkent: TDSHU, 2023. 474 b.
9. [Quronov D. 9: 226] – Quronov D., Mamajonov 3., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: «Akademnashr», 2013. – B. 226.